



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,
1-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
Usmonova Muattar Bahadirjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni	14
Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari	17
Dilsora Shodmonova	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях	24
Истамова Нигора Азимжановна	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
Artikov Xayrulla Baxtiyarovich	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline	44
Lola Mannobova	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries	48
Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları	51
Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari	55
Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni	59
Abdunazarov Abdumutal Olimovich	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari	64
Alimova Gulrux Farhod qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	70
Axtamova Mohinur O'tkir qizi	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni	74
Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'Iqinova Muxlisaxon Jamshid qizi	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida)	78
G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi	82
Hamraqulova Durdona Dilshod qizi	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi	87
Hikmatova Yulduz Nuritdinovna	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi	153
<i>Rahimova Sarvinov Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi	195
<i>Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna</i>	
Modern Teaching Methods in English Language Learning.....	199
<i>Sarvinoz Abdulhakimova</i>	
Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi	202
<i>Shahnoza Muhammadiyeva</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	205
<i>Shopulatova Nasiba Umirovna</i>	
Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari.....	208
<i>Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid</i>	
Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	211
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students.....	215
<i>Toshmamatova Marjona Olimjon kizi</i>	
Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik	220
<i>Toshpo'latova Mahina Farxod qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari	224
<i>Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi</i>	
Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations	228
<i>Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi</i>	
Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications.....	232
<i>Veronica Khatamova</i>	
Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi	236
<i>Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi</i>	
Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida	240
<i>Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova</i>	
Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish	246
<i>Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi</i>	
The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation.....	250
<i>Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.</i>	
Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan	254
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubaevna</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish	257
<i>Xoldorova Mashxura G'ulomovna</i>	
Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari.....	260
<i>Xudaybergenova Zuxra Isakovna</i>	
Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari	263
<i>Yusupov Ma'mur Ma'rufovich</i>	
Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина.....	269
<i>Рахимова Шахзода Равшановна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari	273
<i>Imamova Nasiba Xurramovna</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	276
Xidirov Faxriddin Fozilovich	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды	280
Рахмонова Нилуфар Уткир кизи	



AUTIZM SPEKTRI BUZILGAN BOLALARNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK MOSLASHUVINING NAZARIY ASOSLARI

Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Maxsus pedagogika kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0001-5267-212X

Annotatsiya: Mazkur maqolada autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari tahlil qilingan. Unda autizm spektri buzilishining mohiyati, kelib chiqish omillari va o'ziga xos xususiyatlari, uning bolalarning ijtimoiy rivojlanishi, muloqot faoliyati hamda kundalik hayotdagi moslashuv jarayonlariga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, autizm spektri buzilgan bolalarning jamiyatga integratsiyalashuvi, kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil hayot faoliyatiga tayyorlash hamda ijtimoiy faolligini oshirishda qo'llaniladigan samarali pedagogik metodlar va zamonaviy yondashuvlar tahlil qilingan. Maqolada ijtimoiy-pedagogik moslashuv jarayonini samarali tashkil etishda oila, ta'lim muassasalari, pedagoglar, psixologlar, defektologlar va boshqa mutaxassislar hamkorligining ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: autizm spektri buzilishi, ijtimoiy-pedagogik moslashuv, ijtimoiy rivojlanish, kommunikativ ko'nikmalar, pedagogik yondashuv, inkluziv ta'lim, rehabilitatsiya, integratsiya, ijtimoiylashuv, mustaqil faoliyat.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of the socio-pedagogical adaptation of children with autism spectrum disorders. It examines the nature, causes, and specific characteristics of autism spectrum disorders, as well as their impact on children's social development, communication activities, and adaptation processes in everyday life. Particular attention is paid to the integration of children into society, the development of communicative skills, preparation for independent living, and the enhancement of social activity through effective pedagogical methods and modern educational approaches. The article also scientifically substantiates the importance of cooperation among families, educational institutions, teachers, psychologists, special education specialists, and other professionals in ensuring the successful socio-pedagogical adaptation of children with autism spectrum disorders.

Key words: autism spectrum disorder, socio-pedagogical adaptation, social development, communicative skills, pedagogical approach, inclusive education, rehabilitation, integration, socialization, independent activity.

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретические основы социально-педагогической адаптации детей с расстройствами аутистического спектра. Рассматриваются сущность, причины возникновения и основные особенности расстройств аутистического спектра, их влияние на социальное развитие детей, коммуникативную деятельность и процессы адаптации в повседневной жизни. Особое внимание уделено вопросам интеграции детей в общество, развития коммуникативных навыков, подготовки к самостоятельной жизнедеятельности и повышения социальной активности посредством эффективных педагогических методов и современных подходов. В статье научно обоснована значимость взаимодействия семьи, образовательных учреждений, педагогов, психологов, дефектологов и других специалистов в обеспечении успешной социально-педагогической адаптации детей с расстройствами аутистического спектра.

Ключевые слова: расстройства аутистического спектра, социально-педагогическая адаптация, социальное развитие, коммуникативные навыки, педагогический подход, инклюзивное образование, реабилитация, интеграция, социализация, самостоятельная деятельность.

KIRISH

O'zbekiston jamiyatining iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy hayotida yuz berayotgan jadal o'zgarishlar barcha ijtimoiy institutlar faoliyat yuritish tamoyillariga ta'sir ko'rsatdi. Bu esa hozirgi globallashuv va jamiyat taraqqiyoti sharoitida ta'lim tizimi oldiga har bir bolaning, jumladan, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarning ham to'laqonli rivojlanishini ta'minlash vazifasini qo'yimoqda^[1]. Shu nuqtai nazardan, autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvi muammosi zamonaviy maxsus pedagogika va inkluziv ta'limning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur holat autizimli bolalarning hayot faoliyati, shaxsiy rivojlanishi va tarbiyasiga turlicha ta'sir etib, tez o'zgarib borayotgan ijtimoiy sharoitlar hamda hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda ularning jamiyatga ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga qaratilgan yangi pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishni talab etadi.

Yangi yondashuvlar jamiyatda insonparvar munosabatlarni shakllantirish, ijtimoiy yordam ko'rsatish institutlarining innovatsion shakllarini tashkil etish, tarbiyaviy amaliyotlarda plyuralizm va variativlikni rivojlantirish, yaxlit pedagogik makonni yaratish, ijtimoiy moslashuv va individuallashtirish jarayonlarini pedagogik jihatdan optimallashtirish hamda ijtimoiy moslashuv jarayoni subyektlarining tashabbuskorligini kengaytirish bilan tavsiflanishi lozim.

Autizimli bolalarning ijtimoiy moslashuv jarayonini uning turli darajadagi (makro-, mikro-muhit va individ – biopsixosotsial) xususiyatlari birligi va xilma-xilligida nazariy hamda eksperimental pedagogik rekonstruksiya qilish muammosining qo'yilishi zamonaviy insonshunoslik fanining rivojlanish mantiqiga mos keladi.

Mazkur jarayonning tendensiyasi shuni ko'rsatadiki, autizimli bolalarni ijtimoiy-madaniy va ta'lim muhitiga jalb etish, ularni yanada mustaqil hayotga tayyorlash ularning muvaffaqiyatli rivojlanishi, tarbiyasi, ta'lim olishi, ijtimoiy moslashuvi va integratsiyasiga xizmat qiladi. Bu esa ularga umumta'lim maktablarida ta'lim olish imkonini yaratib, ayrim bilim sohalari hamda san'atda iqtidorlarini namoyon etishlariga zamin yaratadi.

Maxsus ta'limdagi yangi, shaxsga yo'naltirilgan paradigma ijtimoiy pedagogikaning istiqbolli yo'nalish sifatida rivojlanishini obyektiv ravishda dolzarblashtiradi va rag'batlantiradi. Ushbu yo'nalish autizimli bolalarni ijtimoiy muhitga moslashtirish, tarbiyalash hamda ma'naviy qo'llab-quvvatlash orqali makro va mikro muhit darajasida hamkorlik va integratsiya imkoniyatlarini o'rganadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Autizm spektri buzilishi bolalarning ijtimoiy muloqotga kirishishi, atrof-muhit bilan o'zaro munosabat o'rnatishi hamda ijtimoiy xulq-atvorni egallashida sezilarli qiyinchiliklar bilan tavsiflanadi. Shu bois ushbu toifadagi bolalarni jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilish, ularning ijtimoiylashuv jarayonini qo'llab-quvvatlash va moslashuv darajasini oshirish maxsus pedagogikaning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarda autizimli bolalarning rivojlanishida ijtimoiy muhit, pedagogik ta'sir hamda individual yondashuvning muhim o'rin tutishi ta'kidlanadi^[5].

Ijtimoiy-pedagogik moslashuv tushunchasi shaxsning ijtimoiy muhitga moslashuvi, jamiyat talablariga javob beruvchi xulq-atvorni egallashi hamda ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishga tayyorligi bilan izohlanadi. Maxsus pedagogika nuqtai nazaridan esa mazkur jarayon autizm spektri buzilgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish, ijtimoiy tajriba orttirish hamda mustaqil hayotga tayyorlash bilan uzviy bog'liqdir^[4].

So'nggi yillarda inklyuziv ta'lim tizimining rivojlanishi autizimli bolalarning umumta'lim muhitida ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirib, ularning ijtimoiy-pedagogik moslashuvini ta'minlashga qaratilgan ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy moslashuvi samaradorligi ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan pedagogik ta'sir, oila va ta'lim muassasasi hamkorligi hamda maxsus metodik yondashuvlarga bog'liqdir^[3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning nazariy asosini zamonaviy maxsus pedagogika, ijtimoiy pedagogika, psixologiya hamda sotsiologiya fanlarida ishlab chiqilgan fundamental konsepsiyalar majmui tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvini kompleks, tizimli va ko'p darajali jarayon sifatida talqin etish imkonini beradi.

Birinchiidan, tadqiqotning nazariy asosini nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ijtimoiy ishning nazariyasi va texnologiyalarini yorituvchi sotsiologik tadqiqotlar tashkil etadi. Mazkur yo'nalish vakillari nogiron shaxsni jamiyatning to'laqonli subyekti sifatida ko'rib, uning shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy ishtirok va o'zini ro'yobga chiqarish huquqini asoslaydilar^[11]. Ularning ilmiy ishlari reabilitatsiya jarayonida tibbiy modeldan ijtimoiy modelga o'tish zarurligini asoslab, autizimli bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda ijtimoiy muhitning hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi.

Ikkinchiidan, pedagogik-antropologik konsepsiyalar tadqiqotning metodologik poydevorini tashkil etadi^[9, 10, 12, 13]. Ushbu yondashuvlar shaxsni faoliyat subyekti sifatida talqin etib, uning rivojlanishida qadriyatlar, motivatsiya va ijtimoiy tajribaning o'rnini asoslaydi. Bu esa autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvini ularning individual xususiyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Uchinchiidan, pedagogik konsepsiyalar pedagogik jarayonning qonuniyatlari, mantiqi va metodologik asoslarini aniqlash orqali bola shaxsini ta'lim va tarbiya subyekti sifatida tushunishga imkon beradi^[7]. Ushbu



yondashuv autizimli bolalar bilan ishlashda ularni passiv obyekt sifatida emas, balki faol ishtirokchi sifatida ko'rish zarurligini asoslaydi.

To'rtinchidan, ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlar ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni, bosqichlari va mexanizmlarini ochib berib, shaxsning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirini tizimli tahlil qilish imkonini beradi^[14]. Ushbu konsepsiyalar autizm spektri buzilgan bolalarning makro va mikro ijtimoiy muhit sharoitida moslashuvini o'rganishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Beshinchidan, psixologik va ijtimoiy-psixologik konsepsiyalar autizimli bolalarning rivojlanish xususiyatlari, kommunikativ qiyinchiliklari hamda ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonidagi o'ziga xosliklarini tushuntirib beradi^[6]. Xususan, Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi bola rivojlanishida ijtimoiy muhit va muloqotning hal qiluvchi rolini asoslaydi, bu esa autizimli bolalarning ijtimoiy moslashuvini tashkil etishda muhim metodologik yo'nalish sifatida xizmat qiladi.

Shu tariqa, tadqiqotning nazariy asoslari ijtimoiy model, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, faoliyat nazariyasi hamda ijtimoiylashuv konsepsiyalarining integratsiyasi asosida shakllantirildi. Mazkur yondashuvlar autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvini optimallashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish uchun mustahkam metodologik poydevor sifatida namoyon bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida keltirilgan ilmiy manbalar tahliliga ko'ra, autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvi muammosi zamonaviy maxsus pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlarining tutashgan nuqtasida o'rganiladigan kompleks ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Ushbu jarayonning nazariy asoslari bir qator fundamental ilmiy konsepsiyalar – ijtimoiylashuv nazariyasi, faoliyat nazariyasi, rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyasi hamda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlarga tayanadi.

Bizningcha, ijtimoiy-pedagogik moslashuvning nazariy asosini ijtimoiylashuv nazariyasi tashkil etadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, shaxs jamiyat tajribasini o'zlashtirish, ijtimoiy rollarni egallash hamda ijtimoiy munosabatlarga kirishish jarayonida shakllanadi. Autizm spektri buzilgan bolalarda aynan ijtimoiylashuv jarayonining buzilishi kuzatiladi, ya'ni ular ijtimoiy muloqotga kirishishda, emotsional aloqa o'rnatishda hamda ijtimoiy normalarni anglashda qiyinchiliklarga duch keladilar^[6]. Shu sababli ijtimoiy-pedagogik moslashuv jarayoni ularning ijtimoiylashuvini qo'llab-quvvatlash va korreksiya qilishga qaratilishi lozim.

Ikkinchi muhim nazariy asos – faoliyat nazariyasi bo'lib, unga ko'ra shaxs rivojlanishi faoliyat jarayonida amalga oshadi. L.S.Vygotskiy va uning izdoshlari ta'kidlaganidek, bola rivoji ijtimoiy muhit va faoliyat orqali yuzaga keladi. Autizimli bolalarda ijtimoiy faoliyatning cheklanganligi ularning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois pedagogik jarayonda bolalarni turli faoliyat turlariga – o'yin, muloqot, o'quv va ijtimoiy faoliyatga jalb etish ularning moslashuv darajasini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Shuningdek, ijtimoiy-pedagogik moslashuvning nazariy asoslari kommunikativ rivojlanish konsepsiyasi bilan ham bog'liqdir. Autizm spektri buzilgan bolalarda nutq va muloqot rivojlanishidagi buzilishlar ijtimoiy moslashuvni qiyinlashtiradi. Shu sababli kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish, alternativ va qo'llab-quvvatlovchi kommunikatsiya vositalaridan foydalanish (vizual kartalar, piktogrammalar, PECS tizimi) ularning ijtimoiy muhitga moslashuvida muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Yana bir muhim nazariy asos – inklyuziv ta'lim konsepsiyasidir. Ushbu yondashuvga ko'ra, har bir bola, shu jumladan autizm spektri buzilgan bolalar ham umumiy ta'lim muhitida ta'lim olish huquqiga ega. Inklyuziv muhit bolalarning tengdoshlar bilan o'zaro muloqotini kengaytiradi, ijtimoiy tajriba orttirish imkonini beradi hamda ularning ijtimoiy moslashuvini jadallashtiradi^[9].

Bundan tashqari, shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuv ham muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv autizimli bolalarning individual xususiyatlarini, rivojlanish darajasini, qiziqishlarini va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Har bir bola uchun individual ta'lim yo'nalishini ishlab chiqish, differensial yondashuvni qo'llash hamda qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish ularning ijtimoiy-pedagogik moslashuvini samarali ta'minlaydi.

Nazariy jihatdan ijtimoiy-pedagogik moslashuv quyidagi tarkibiy komponentlar orqali namoyon bo'ladi:

- kognitiv komponent – bola tomonidan ijtimoiy muhit va ijtimoiy normalarni anglash darajasi;
- kommunikativ komponent – muloqotga kirishish va ijtimoiy aloqalarni o'rnatish qobiliyati;
- emosional komponent – emotsional reaksiyalarni boshqarish va boshqalarning hissiyotlarini tushunish;
- faoliyatli komponent – ijtimoiy faoliyatda amaliy ishtirok etish darajasi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari kompleks xarakterga ega bo'lib, u ijtimoiylashuv, faoliyat, kommunikativ rivojlanish, inklyuziv ta'lim va shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlarning o'zaro integratsiyasi asosida shakllanadi. Ushbu nazariy yondashuvlar mazkur toifadagi bolalarni jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va mustaqil hayotga tayyorlash uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni 2022-yil 28-yanvar.
2. Egamberdiyeva N.A. Ta'lim klasteri sharoitida autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashning samarali mexanizmlari. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiya aftoreferati. – Chirchiq. 2025. - 45 b.
3. Jordan, R., & Powell, A. (2012). Understanding Autism in Education. Routledge.
4. Turg'unboyev S.F. O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar bitiruvchilarining ijtimoiy moslashuvi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. – T. 2021. - 135 b.
5. Wang, P., & Spillane, A. (2009). Evidence-based social skills interventions for children with autism: A meta-analysis. *Education and Training in Developmental Disabilities*, 44(3), 318–342.
6. Yoqubova H.B. Autizm sindromli bolalarda tadqiqot olib borgan olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari. "Zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari va neyropsixolingvistika muammolari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Ilmiy nashr. – Farg'onan: FarDU, 2024. 19-noyabr. 109-111 betlar.
7. Антонов Константин Михайлович, Колкунова Ксения Александровна Василий Васильевич Зеньковский: религиозное переживание как основа психологии религии и идеи религиозного воспитания // Вестник ПСТГУ. Серия 4: Педагогика. Психология. 2018. №48.
8. Лебединская К.С., Никольская О.С. Диагностика раннего детского аутизма: Нач. проявления. – М.: Просвещение, 1991.
9. Пирогов Н.И. Избранные педагогические сочинения / Н.И.Пирогов. – Москва, 1952. – с. 200-207
10. При написании статьи использованы материалы юбилейного издания: Сластенин. М., 2000.
11. Романов П.В., Ярская-Смирнова Е.Р. Методы прикладных социальных исследований. Учебное пособие. Изд. 2-е, дополненное. М.: ООО "Вариант", ЦСПГИ, при участии ООО "Норт Медиа", 2008. – 215 с.
12. Сорокин П.А. Социальная мобильность. М., 2005.
13. Ушинский К.Д. Собрание сочинений: В 11 т. Т. 11. М.–Л.: Изд-во Академии педагогических наук РСФСР, 1952. 727 с.
14. Мудрик А.В. Социальная педагогика: Учеб. для студ. пед. вузов. Под ред. В.А.Сластенина. - 3-е изд., испр. и доп. - М.: Издательский центр "Академия", 2000. - 200 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.